TOSHKENT VILOYATI OQQO'RG'ON TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 12 - fevral 35-10-133-Q/22 Oqqo‘rg‘on tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF–53-son Farmoni ijrosini tashkil etish to‘g‘risida

Tumanda mavjud xomashyo bazasidan samarali foydalangan holda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini yanada rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 31-yanvardagi 34-10-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta`minlash maqsadidaб **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–53-son Farmoni, Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 31-yanvardagi 34-10-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi Farmoni bilan:

a) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi qoshida yuridik shaxs tashkil etmagan holda To‘qimachilik sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilganligi va uning daromadlarini shakllantirish manbalari etib quyidagilar:

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan ajratiladigan mablag‘lar;

O‘zbekistan Respublikasi bojxona chegarasi orqali paxta ip-kalavasi va trikotaj matoni olib chiqishda undiriladigan yig‘imlarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdori;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalari belgilanganligi;

b) eksport qiluvchilarning eksportoldi moliyalashtirish uchun tijorat banklaridan olgan

kreditlari bo‘yicha Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab- quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan kompensatsiya va kafillik berish muddatlari 2024- yil 1-yanvarga qadar uzaytirilganligi hamda ushbu tartib barcha eksportchi korxonalarga tatbiq etilishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yil 1-fevraldan 2025-yil 1-yanvargacha shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

a) hududlarda bo‘yalgan mato hamda aralash va bo‘yalgan gazlama mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirgan korxonalarga, mazkur loyihalar doirasida xarid qilingan uskunalar qiymatining 10 foizi, biroq 500 ming AQSH dollari ekvivalentidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda Jamg‘arma hisobidan subsidiya ajratiladi. Bunda:

mazkur loyihalar doirasida yangi uskunalar xarid qilingan bo‘lishi;

uskuna qiymatiga yetkazib berish hamda boshqa qo‘shimcha xizmatlar xarajatlari kiritilmasligi;

loyihani foydalanishga topshirish dalolatnomasi mavjud bo‘lishi lozim;

b) bo‘yalgan mato hamda aralash va bo‘yalgan gazlama mahsulotlarini hamda tarkibida sun’iy tola 80 foizdan yuqori bo‘lgan ip-kalava ishlab chiqarish uskunalarini xarid qiluvchi korxonalarga boshlang‘ich 15 foiz to‘lovni to‘lash uchun xorijiy valyutada 7 yil muddatgacha 3 yillik imtiyozli davr bilan depozit stavkasiga bankning 1 foizlik marjasini hisobga olgan holda “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ viloyat filiali tomonidan kredit ajratiladi;

v) bo‘yalgan mato, bo‘yalgan gazlama va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarga xorijiy valyutada 1 yil muddatgacha 9 oygacha imtiyozli davr bilan depozit stavkasiga bankning 1 foizlik marjasini hisobga olgan holda 3 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lmagan miqdorda “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ viloyat filiali tomonidan eksportoldi moliyalashtirish, shu jumladan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kredit ajratiladi;

g) bo‘yalgan mato, bo‘yalgan gazlama va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini, shu jumladan komissioner (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumida ushbu mahsulotlarning kamida 80 foizini eksport qilgan korxonalarga:

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘lash;

mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza yubormasdan turib, soliq organlarini xabardor qilgan holda uch yil muddatgacha yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solish to‘lovini kechiktirish huquqi beriladi. Bunda, soliqni kechiktirish muddati tugaganidan so‘ng soliq qarzi va hisoblangan foizlar kechiktirish muddatiga teng muddat mobaynida bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilganligi inobatga olinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Xakimjonov

zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Karimdjanov**